

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI


BUXORO VILOYAT XALQ TA'LIMI XODIMLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI

MAKTABGACHA, BOSHLANG'ICH VA MAXSUS
TA'LIM METODIKALARI KAFEDRASI

**KITOB VA KITOBXONLIK –
O'QUVCHI MA'NAVIYATI
KO'ZGUSI**

Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO VILOYAT XALQ TA'LIMI XODIMLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI**

**MAKTABGACHA, BOSHLANG'ICH VA MAXSUS
TA'LIM METODIKALARI KAFEDRASI**

**KITOB VA KITOBXONLIK –
O'QUVCHI MA'NAVIYATI
KO'ZGUSI**

Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

2021-yil 30-aprel

“Kitob va kitobxonlik – o‘quvchi ma’naviyati ko‘zgusi”
respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Buxoro – 2021.

Tahrir hay’ati A.K.Safarov – *BVXTXQTMOH markazi direktori*
G.T.Yadgarova – “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedra mudiri ps.f.n. (PhD)
M.S.Narziyeva – Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi o‘qituvchisi
N. H. Aslanova – Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi o‘qituvchisi
S.S.To‘rayeva – Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi o‘qituvchisi

Mazkur respublika miqiyosidagi ilmiy-amaliy onlayn konferensiya 2021-yil 30-aprel kuni Buxoro viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazida “KITOB VA KITOBOXONLIK – O‘QUVCHI MA’NAVIYATI KO‘ZGUSI” mavzusida Xalqaro bolalar kitoblari kuniga bag‘ishlab o‘tkazildi va unga tegishli maqolalar to‘plam sifatida jamlandi.

To‘plam Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasida 2021-yil 2-aprel ____-sonli yig‘ilishida muhokama etilgan, BXTXQTMOH markazi ilmiy kengashida 2021-yil 3-aprel 3-sonli yig‘ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Maqolalarda keltirilgan ma’lumotlar, ilmiy-nazariy fikrlarning mazmuni va ishonchliligi hamda imloviy savodxonligiga mualliflar mas’uldirlar.

kitob sovg‘a qilaman”, “Biz oilaviy o‘qiymiz” kabi aksiyalarni o‘tkazish doirasida oilada sog‘lom ma’naviy muhit yaratish, har bir oilada ma’naviy ong, har tomonlama yetuk kamolga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash bilan birga imkoniyati cheklangan insonlarni uylariga borib, ular bilan suhabatlashib, yangi kelgan adabiyotlar bilan tanishtirish jarayonida qiziqishlarini inobatga olgan holda o‘qish uchun kitoblar tavsiya etiladi.

Yoshlar dunyoqarashini kengaytirish, intellektual saviyasini o‘stirish, ma’naviy olamini boyitishga oid ilmiy-ma’rifiy, badiiy adabiyotlar, jumladan, elektron shaklda o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti hamda jahon adabiyotining buyuk badiiy namunalarining audio va video variantini yaratish va ijtimoiy tarmoqlarga ya’ni “Bilim”AKMning bilim.natlib.uz saytiga, instagramga, bilim_akm telegramga va feysbukdagi “Toshkent shahar Bilim axborot-kutubhona markazi” sahifalariga joylashtirish ishlari muntazam amalga oshirilishi kitob o‘qishga, mutolaa madaniyatini oshirishda mustahkam zamin yaratmoqda.

Har qanday buzg‘unchi kuch va xurujni yuksak ma’naviyat bilan yengish mumkin. Shu ma’noda kitobxonlik bugun barchamiz uchun hayotiy zaruratga aylanmog‘i kerak. Ushbu masalaga shaxsan davlatimiz rahbari tomonidan alohida e’tibor qaratilib, bu borada muhim vazifalarning belgilab berilayotganligi yoshlar o‘rtasida yuksak ma’naviy ong va ma’rifatparvarlikni targ‘ib qilish yo‘lida barchamiz uchun yangi ibrat bosqichini boshlab berdi, deyish mumkin.

Zero, kitob irodani toblaydi, boshqaruva mahoratini oshiradi. Bugungi tezkor va zamonaviy sharoitda intellektual salohiyati yuksak kadrlarni tayyorlashda yoshlarning kitobga munosabatini yanada yaxshilash, ta’lim maskanlarida mavjud kutubxonalar fondini eng yangi badiiy, ilmiy, sohaga doir, jumladan, davlat tilidagi kitoblar bilan muntazam ravishda boyitib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ЎҚУВЧИ-ЁШЛАР МАЊНАВИЙ КАМОЛОТИДА КИТОБХОНЛИКНИНГ АҲАМИЯТИ

***Б. Мустафоев, Бухоро вилоят XTXҚТМОҲМ “Амалий фанлар ва
МТТ методикаси” кафедра мудири, доцент***

Ёш авлоднинг келажакда бой маънавият соҳиби бўлиб етишишига китобнинг ўрни алоҳида. Зеро, китоб миллатнинг ақл кўзини ёритувчи офтоб. Бугунги глобаллашув жараёнида ёшларнинг китобхонлик маданиятини ривожлантиришга қаратилаётган жиддий эътибор ана шундандир.

Муҳтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 12 январдаги “Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида» ги фармойиши муҳим аҳамиятга молик ҳужжат сифатида соҳадаги камчиликларни бартараф этиш бўйича аниқ чора-тадбирларни ишлаб чиқиш орқали китобхонларнинг сон ва сифат кўрсатгичини оширишга, маданиятлилик даражасини ривожлантиришга хизмат қилиши назарда тутилган. Яна бир муҳим жиҳат - китобларни чоп этиш ва тарқатиш масаласи бўлиб, сифатли таълим-тарбия жараёнини ташкил этиш ҳамда амалга оширишда унинг аҳамияти ниҳоятда катта.

Мамлакатимизда ушбу борада амалга оширилаётган ислоҳотлар замирида ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини бойитиш ҳамда китобхонлик маданиятини ривожлантириш, бу орқали эса юксак маънавиятни қарор топтириш мақсади кўзда тутилганлиги бежиз эмас. Зеро, давлатимиз Раҳбари “Биз ёшларга доир давлат сиёсатини ҳеч оғишмасдан, қатъият билан давом эттирамиз, балки бу сиёсатни энг устувор вазифамиз сифатида бугун замон талаб қилаётган юксак даражага кўтарамиз. Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз tengдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, баҳтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз”, деб таъкидладилар.

Фармойиш ижросини таъминлаш мақсадида мамлакатимизда кенг миқёсдаги ишлар амалга оширилмоқда. Республика “Faafur Fулом”

номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи китобхонларга ўзбек ва чет эл адибларининг мумтоз ҳамда замонавий асарларидан жамланган 44 жилдан иборат “Адабиёт хрестоматияси” ни тақдим этди. Ёшларнинг мазкур китобларни мутолаа қилиб завқланиши, мулоҳаза юритиши ҳамда билимларини муттасил ошириб боришлирага имконият яратиб берилди.

Китоб – нафақат таълим воситаси, айни пайтда тарбия қуроли ҳамдир, Унинг беминнат хизмати туфайли буюк санъат асарлари инсоният ҳукмига тақдим этилган. Инсониятни эл равнақи йўлида жасоратга ундаған, бугун билан ўтмишни таққослашга ҳамда истиқбол ҳақида тасаввур қилишга замин яратган кудрат ҳам китобдир.

Мутолаа қилинган китоб бола қалбида бутун умр муҳрланиб қолиши, унинг китобга меҳри, китобхонлик маданияти шаклланишига хизмат қилишини унутмаслик керак. Мумтоз адабиёт, детектив ва саргузашт, илмий-фантастик асарлар, шеърият, эртаклар ва фольклор, ҳажвий асарлар, фалсафий китобларни қандай мутолаа қилиш хусусида мутахассисларнинг тавсияларидан фойдаланиш ҳам яхши самара беради.

Ўқитувчи қайси фандан дарс беришидан қатъий назар ўқувчини, энг аввало, китобхонликка ўргатиш унинг педагоглик бурчидир.

Китоб воситасида мамлакатимиз тарихи, маданияти, санъати ва миллий қадриятларимизни ёшлар онгу-шуурига сингдириш, илм-фаннынг энг сўнгги янгиликларини етказиш мумкин. Албатта, ёшларни китобхонликка ўргатиш, маданиятини шакллантириш кенг қамровли масаладир.

Айниқса, ёшлар маънавиятини турли ёт ғоя ва таҳдидлардан асрашда ҳам мутолаа асосий ўрин тутади. Ўқувчиларнинг китобхонлик маданиятини ривожлантиришда ва тарғиб этишда кутубхонанинг мактаб маъмурияти билан ҳамкорлиги муҳим ўрин эгаллаб, қуидагиларда акс этади:

- ўқувчиларнинг китобхонлик фаоллиги даражасини оширишга йўналтирилган маҳсус дастурларни ишлаб чиқишида;

- ахборот-ресурс маркази ходимларига китобхонликка жалб этиш бўйича турли тадбирлар ўтказишида ва маркетинг фаолиятини амалга оширишда ҳар томонлама ёрдам кўрсатишида.

Мактаб маъмурияти билан ҳамкорлик ишлари асосан, ўқувчи-ёшларни китобхонлик даражасини ошириш борасида бир қатор тадбир режалари тузиш мумкин. Ўқувчилар билан муҳим саналарга бағишлиб турли тадбирлар, викториналар, таниқли адиблар, шоир-ёзувчилар билан учрашувлар ташкил этиш шулар жумласидандир. Шунингдек, мактабда кутубхоначилар билан ҳамкорликда “Мутолаа куни”, “Мушоира кечалари”, “Мен ўқиган китоб” мавзуларида туркум тадбирлар ўтказилиб турилиши мақсадга мувофиқдир. Ўқувчи-ёшларга синфдан ташқари ўқишга бадиий адабиётлар тавсия этиб бориш лозим. Айниқса, ўзбек адабиётининг етук намояндлари қаламига мансуб бадиий асарларни ўқиш уларга завқ бағишлийди, ёш авлодни келажакда юксак маънавиятли инсон, баркамол шахс бўлиб этишишига хизмат қиласи.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 сентябрдаги “Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида” ПҚ-3271-сонли қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Конуни “Ахборот-кутубхона фаолияти тўғрисида” “Маърифат”, 2006 й. 2-5 август.
3. Таълим тизимидағи ахборот-кутубхона жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш Тузувчилар: Д.А. Ганиева, Р. И. Ратнер. Тошкент. Янги аср авлоди. 2013. 380-б.

| | |
|--|-----|
| Б. И. Мустафоев. Ўқувчи-ёшлар маънавий камолотида китобхонликнинг аҳамияти..... | 126 |
| J. Y. Oripov, M. A. Kandaxarov. O'quvchi yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning muammo va yechimlari..... | 130 |
| N. E. Ergasheva. A. X. Asomov Kitob mutolaasi-tafakkur va ma'naviyat xazinasi..... | 134 |
| M. U. Eshonqulova. D. Abduraimova. Kitob – inson ma'naviyati ko'zgusi..... | 138 |
| N. E. Ergasheva. D. A. Amonova. Bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishda oilaning o'rni..... | 141 |
| M. I. Abdullayeva. "Tarbiya" darslarida kitobxonlik mavzularini yoritishning dolzARB masalalari..... | 142 |
| Sh.S.Murodova. Kichik maktab yoshdagi bolalarni kitobga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish.... | 145 |
| Г. Ю. Хамирова. Основные задачи изучения русской литературы в узбекской школе..... | 155 |
| Н. Ҳ. Ботирова. Китобхонлик ўқувчи ёшларнинг маънавий камолотидаги ўрни..... | 158 |
| G. R. Muqimova. Yoshlarning ma'naviyatini boyitishda badiiy adabiyot mutolaasining o'rni..... | 161 |
| Sh. N. Turdiyeva. Kitobxonlarda o'qish madaniyatini tarbiyalashni shakllantirish..... | 163 |
| M. Aliyeva. Role of reading..... | 168 |
| Z. S. Boltayeva. Kitob – ilm va hikmat manbai..... | 172 |
| N. X. Umarova. O'quvchi-yoshlarni ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda kitobxonlikning o'rni..... | 175 |
| Z. S. Rasulova, Z. O. Haydarova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kutubxonaga jalg etish yo'llari..... | 180 |
| Sh.N. Turdiyeva. Kitobxonlik o'smirlar ma'naviyatini rivojlantirishning faol jarayonidir..... | 183 |
| G. R. Muqimova. Kitoblarda fitonim metaforalarning keltirilishi..... | 189 |
| G. S.To'rayeva. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobga muhabbat hissini tarbiyalash usullari..... | 192 |
| Y. N. Salimova. Kitobxonlik madaniyatini oshirish-kelajak poydevori..... | 194 |
| L. I. Jumayeva. Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning o'rni..... | 198 |
| N. R. G'oyibnazarova. Ona tili darslarida ijodiy topshiriqlar bajarishda o'qigan kitoblardan foydalanish..... | 201 |

III YO'NALISH

KITO BXONLIKNING INSON RUHIYATIGA IJOBIY TA'SIRI

| | |
|--|-----|
| У. А. Қосимов. Ёшларни китобхонликка жалб қилишда замонавий психология ютуқларидан фойдаланиш..... | 205 |
| Д. И. Худойқулов. Ёшлар ахлоқий-эстетик иммунитетини шакллантиришда мутолаа маданияти, китобхонликни инсон рухиятидаги баъзи бир масалалари..... | 211 |
| Ҳ. Ж. Мухидов. Ўқувчи шахсининг шаклланишида китобнинг ўрни..... | 216 |
| М. М. Jabborov. Qadimiy "Avesto" kitobidagi tibbiy bilimlar..... | 219 |
| Z. B. Yuldasheva. Kitobxonlik madaniyatini oshirish davr talabi..... | 221 |
| B. A. Kolmo'minova. O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning usul va vositalari..... | 225 |
| М. Мўминов. Китоб ўқиш ва соғлом дунёқараш..... | 229 |
| Т. Ҳ. Олимов. Бўлажак олий маълумотли мутахассисларда китобга бўлган меҳрни орттириш орқали фуқаролик маданиятини шакллантириш..... | 233 |
| Т. Ҳ. Олимов. Бўлажак олий маълумотли мутахассисларда фуқаролик маданиятини шакллантиришда китобнинг ўрни..... | 236 |
| M.I.Baqoyeva. Kitobxonlikning siri nimada?..... | 239 |
| L.Sh.Bozorova, D.Sh.Nabiyeva. O'quvchi tayanch kompetensiyasini shakllantirishda kitob va kitobxonlikning o'rni..... | 242 |
| S.S.Aslanova. Kitob – tafakkur kaliti..... | 245 |
| M. G'. Navro'zova. Ona tili darslarini samarali tashkil etish orqali yoshlarni ma'naviy tarbiyalash..... | 248 |
| D. B. Muminova. Kitob-tafakkur qanoti..... | 251 |